


# NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


(Davlat xizmatlari markazlari ma'lumotlar bazasi  
asosida shakllantirildi)



## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)


2



Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha  
2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

3

23 590




Mas'uliyati cheklangan  
jamiyat

1 304



Oilaviy korxonona

151



Unitar korxonona

6 254



Xususiy korxonona

18



Aksiyadorlik jamiyati

430



Boshqa korxonalar

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2021- y. ■ 2022- y.


# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022- yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-oktabr oylarida)






## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 1 400 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 172 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 304 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 139 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 275 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 30 taga yoki 90,1 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 24 659 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 619 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 23 590 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 344 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4 013 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 303 taga yoki 93,0 foizni tashkil etganini ko'rish mumkin.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra 316 tani tashkil etib, ulardan 310 tasi yoki 98,1 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 18 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatimizda 34 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan oshmagan.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga, birlikda)




**Namangan viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Rossiya Federatsiyasi	67	50	17
Qozog'iston Respublikasi	13	7	6
Xitoy Xalq Respublikasi	55	28	27
Qirg'iziston Respublikasi	10	8	2
Tojikiston Respublikasi	13	10	3
Turkiya Respublikasi	44	18	26
Hindiston Respublikasi	15	6	9
Janubiy Koreya Respublikasi	32	23	9
Singapur Respublikasi	4	2	2
Eron Islom Respublikasi	5	2	3



# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Namangan viloyati	310	186	124
Namangan shahri	106	57	49
Mingbuloq	6	2	4
Kosonsoy	33	23	10
Namangan	20	17	3
Norin	11	6	5
Pop	30	21	9
To'raqo'rg'on	13	7	6
Uychi	18	14	4
Uchqo'rg'on	10	5	5
Chortoq	25	13	12
Chust	24	13	11
Yangiqo'rg'on	14	8	6

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Namangan shahrida 106 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 34,2 %), Kosonsoy 33 ta (10,6 %), Pop 30 ta (9,7 %), Chortoq 25 ta (8,1 %), Chust 24 ta (7,8 %), Namangan 20 ta (6,5 %) ni tashkil etadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

11




2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda (jami ro'yxatga olingan 37 817 ta yuridik shaxslarning) ulushi Namangan shahri (32,9 %), Chust (8,0 %), Namangan (6,7 %), Uychi (6,6 %), Uchqo'rg'on, Pop (6,3 %dan), Kosonsoy (6,2 %), To'raqo'rg'on (6,1 %), Chortoq (6,0%), Yangiqo'rg'on (5,3 %), Norin (5,1 %) hamda Mingbuloq (4,5 %) hissalariga to'g'ri

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda)


2022- yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda (yangi ro'yxatga olingan 4 751 ta yuridik shaxslarning), ulushi Namangan shahrida (30,8 %), Uchqo'rg'on (8,4 %), Chust (7,6 %), Chortoq (7,4 %), Namangan (6,5 %), Norin va Uychi (6,4 %dan), Yangiqo'rg'on (6,0 %), To'raqo'rg'on (5,8 %), Pop (5,4 %), Kosonsoy (5,3 %) hamda Mingbuloq (4,0 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2022-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

12




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2022-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




2022-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda (faoliyat ko'rsatayotgan 23 590 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning) ulushi Namangan shahrida (36,1 %), Uychi (7,0 %), Chortoq (6,8 %), Pop va Kosonsoy (6,4 %dan), Uchqo'rg'on (6,1 %), Namangan (6,0 %), Chust (5,8 %), Norin hamda Yangiqo'rg'on (5,4 %dan), To'raqo'rg'on (4,9 %), Mingbuloq (3,7 %) tumanlari hissasiga tegishli.



2022-2026-yillarda rivojlanishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning "Taraqqiyot strategiyasi"da 2026 yilgacha Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, viloyatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni



(2022- yilning yanvar-oktabr oylarida, birlikda)



2022- yilning yanvar-oktabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda (yangi tashkil etilgan 275 ta oilaviy korxonalarining), ulushi Namangan shahri (35,3 %), To'raqo'rg'on (15,6 %), Yangiqo'rg'on (14,5 %), Namangan (8,3 %), Chortoq (6,5 %), Chust (4,0 %), Mingbuloq, Pop, Uychi (3,3 %dan), Norin, Kosonsoy (2,2 %dan), Uchqo'rg'on (1,5 %) tumanlari hissasiga tegishli.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yilning yanvar-oktabr oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.